Kun raqami: “Qo‘ng‘irot soda zavodi» MCHJ QK da “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar

// 02.12.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qo-ng-irot-soda-zavodi-mchj-qk-da-yashil-makon-umummilliy-lo



Chinakam xalq harakatiga aylangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonlarida ham kuzgi ko‘chat ekish tadbirlari faol olib borilmoqda. Xususan, “Qo‘ng‘irot soda zavodi» MCHJ QKga qarashli hududlarda, “Elobod shaharchasi”, Yangi O‘zbekiston mavzesida daraxtlar, ko‘chatlar, butalar va gullar ekish, parvarishlash, ularni sug‘orish ishlari amalga oshirilyapti.



Joriy yilning 11-noyabr kuni «O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisi Timur Muxamedjanovning “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QKga qilgan safari davomida yangidan **8 ga** yerni o‘zlashtirish va **5 ga** yerni ko‘kalamzorlashtirish va ushbu yerlarda tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish yuzasidan vazifalar belgilangan edi.



“O‘zkimyosanoat” AJ “Ekologiya va Yashil iqtisodiyot” bo‘limi boshlig‘i Niyazov Daniyar tomonidan “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QKda “Yashil makon umummilliy loyixasi” dasturi asosida belgilangan vazifalar ijrosi bevosita tahlil qilindi.

Ayni paytda **“Qo‘ng‘irot soda zavodi» MCHJ QK** karashli “Yangi O‘zbekiston” turar-joy massivida unumsiz tuproq o‘rniga 15 km uzoqlikdan sof tuproq olib kelinib, yerlar o‘zlashtirilmoqda. Shuningdek, ushbu yerlarga ko‘kalamzorlashtirish maqsadida mahalliy o‘g‘it bilan ishlov berilmoqda.

Shu bilan birga Yangi O‘zbekiston massivini ham ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Xususan yangidan **8 ga** yer o‘zlashtirilib, **18,6 ga** yerda agrotexnik tadbirlar olib borildi. Hududda **16 571** dona manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari, **23 429** dona buta ko‘chatlari hamda **6 406 dona gul** ekildi. **3 785 tup** daraxtga zararkunandalarga qarshi ishlov berildi.



“O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan tasdiqlangan Manzilli dastur asosida jami 40 000 dona ko‘chat ekildi.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati